

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PATOPSIXOLOGIYA VA TIBBIYOT PSIXOLOGIYASI

(muamolli ma'ruzalar matni)



Namangan 2005

Ushbu muamolli ma'ruzalar to'plami "Patopsixologiya va tibbiyot psixologiyasi" dasturiga kiruvchi barcha mavzularni qamrab olgan bo'lib, pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha taxsil olayotgan talabalarga muljallangan to'plamda har bir mavzu yuzasidan asosiy iboralar mohiyati ochib berilgan, nazorat va test savollari, foydalanish uchun adabiyotlar tartibi kiritilgan. Shuningdek talabalar uchun o'z-o'zini tekshirishga va individual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan psixologik masalalar berilgan.

Tuzuvchi M.Asranbayeva

Taqrizchi A. Raxmonov

Mazkur muammoli ma'ruzalar to'plami pedagogika va psixologiya kafedrasining ----sentabr 2005 yil 2 - bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

NamDU o'quv - uslubiy kengashining 2005 yil ----sentabr 1-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Namangan davlat universiteti
Pedagogika psixologiya kafedrası**

**PATOPSIXOLOGIYA VA TIBBIYOT
PSIXOLOGIYASI**
(muammoli ma'ruzalar matni)

**Muallif:
M.Asranbayeva**

1. MAVZU: TIBBIYOT PSIXOLOGIYASINING PREDMETI

Reja:

1. Tibbiyot psixologiyasi haqida tushuncha.
2. Tibbiyot psixologiyasining fan sifatida rivojlanishi.
3. Tibbiyot psixologiyasining tarmoqlari.
4. Tibbiyot psixologiyasining ahamiyati.

Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalar

- Tibbiyotpsixologiyasi - umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi bo'lib kasalliklarning kelib chiqishida psixikaning o'rni va ahamiyatini o'rganadi.
- Psixogigiena, psixoprofilaktika kasalliklarning oldini olish, saqlash va mustahkamlashda psixikaning rolini o'rganadi
- Patopsixologiya tibbiyot psixologiyasining tarmog'i bo'lib, kasal odam psixikasini o'rganadigan tarmoq. E Krechmer (1888 - 1964) tibbiyoi psixologiyasini fan sifatida ajrab chiqishiga o'zi yaratgan nazariyasi bilan hissa qo'shgan olim.

?

Tibbiyot psixologiyasini o'rganilish qanday ahamiyatga ega?

Tibbiyot psixologiyasi birmuncha yangi fan bo'lib, uni tarao'o'iy etish zamonaviy meditsina yutuqlariga, uni oldida turgan vazifalariga chambar - chas bog'liq.

Tibbiyot psixologiyasining maqsadi bemorga uning shaxsiga oid individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shubhasiz terapevtik samara beradigan usullarni topib yondoshishdir.

Tibbiyot psixologiyasi quyidagilarni o'rganadi:

A) Kasalliklarni psixik ko'rinishini.

B) Kasalliklarni kelib chiqishi va o'tishida psixikaning qanday rol o'ynashini.

B) Ularni davolashda psixikaning rolini.

G) Kasalliklarni oldini olish va sog'liqni mustahkamlashda psixikani qanday rol o'ynashini.

?

Tibbiyot psixologiyasi psixologiya taraqqiyotiga qanday ta'sir etdi?

Bizning asrimizni 20 - yillariga kelib psixologiya, xususan tibbiyot psixologiyasini fan sifatida ajrab chiqarishiga E. Krechmer yaratgan nazariya katta ta'sir ko'rsatdi. U «Tibbiyot psixologiyasi» nomli asar yozib, unda ruxiy o'zgarishlar, buzilishlar haqida ma'lumot berdi. Rus olimlari Sechenov va Pavlov tibbiyot psixologiyasini taraqqiy etishiga katta xissa qo'shdilar. Sharqda Ibn Sinoga qadar ham bir qator olimlar barcha fanlar qatori psixologiyaga ham e'tibor berganlar Bular:

Yakub bin Isaak al Kindi, Abu Nasr al Farobiy Abu Bakr ar Roziy va boshqalar. Ular psixologiyaga doir maxsus asarlar yozgan bo'lsalar ham o'zlarining falsafaga oid asarlarida psixologiyaga doir turli hil muammolarni hal qilishga harakat qilganlar. Abu Ali Ibn Sino ularni davomchisi sifatida psixologiyaga doir masalalarni umumlashtirdi va maxsus asarlar yozdi. U Aristotel kabi odam tanasi va «Ruxiy quvvatlar» materia bilan shaklan bir - biridan ajralmagan holda mavjud ekanligini takidlaydi.

?

Kasallikni davolashda psixikaning roli qay darajada?

Turli kasalliklarni davolashda psixikaning roli juda katta, kasallikni davolashda kasallarga psixik ta'sirning ahamiyati alla qachon isbotlangan.

Kasallarga davo maqsadida reja asosida muntazam psixik ta'sir ko'rsatib borish psixoterapeya deb ataladi.

Kasalliklarni oldini olish sog'liqni saqlash va mustahkamlashda psixikaning rolini alohida fanlar psixigigiyena va psixoprofilaktika o'rganadi.

Tibbiyot psixologiyasi bir - biriga yaqin, ammo bir - biridan farq qiladigan 2 tushunchani - psixopatologiya va patopsixologiyani (patologik psixologiyani) o'z ichiga oladi Psixopatologiya bu-avvalo ruxiy

kasalliklarda, shuningdek boshqa kasalliklarda ham psixikada ro'y beradigan jami o'zgarishlardir.

Patopsixologiya psixologiyaning ana shu o'zgarishlarini o'rganadigan sohasi yoki kasal odam psixikasi to'g'risidagi ta'limotdir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Tibbiyot psixologiya, psixologiyaning qanday soxasi xisoblanadi?
2. Tibbiyot psixologiyasi fan sifatida qachondan taraqqiy eta boshladi?
3. Tibbiyot psixologiyasi tarmoqlarini ayting?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoriT. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Tibbiyot psixologiyasi fanining predmeti nima?
A) Kasalliklarni umumiy ko'rinishi, ularni davolash.
B) Kasalliklarni kelib chiqishi va asoratlari.
*C)Kasalliklarni psixik ko'rinishlari ularni davolashda psixikaning roli.
D) Psixik faktlar ularning qonuniyatlari.
E) Psixikaning taraqqiyoti.
2. Tibbiyot psixologiyasining tarmoqlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
*A) Patopsixologiya, neyropsixologiya, samatopsixologiya, psixoterapiya.
B) Psixofarmakologiya, neyroxirurgiya, parkinsonizm, polipentid.

- C) Psixogigiyena, adrenoretsseptor, eritropoez nevrasteniya.
- D) Psixoprofilaktika, leykopoez, deontologiya, eyforiya.
- E) Neuropsixologiya, neyroxirurgiya, polipoptid, eyforiya.

3. Agar har qanday narsa va xodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa, demak insonning yashash va harakatida ham birorta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri ruxiy quvvatdir degan fikrni Kim aytgan?

- A) Aristotel
- *B) Abu Ali Ibn Sino
- C) Abu Bakr Ar - Roziy
- D) Abu Nasr Al - Farobiy
- E) Abu Rayxon Beruniy

4. Psixopatologiya va potopsixologiya, tushunchalari bir mazmunda qo'llanadimi?

- A) Aynan bir hil tushuncha.
- *B) Bir biriga yaqin, lekin ikki hil tushuncha.
- C) Ikkisi ham boshqa – boshqa tushuncha
- D) Omonim tushuncha
- E) Sinonim tushuncha

5. Kasalliklarni oldini olish, sog'liqni saqlash va mustahkamlashda psixikaning rolini tibbiyot psixologiyasining qaysi tarmoqlari o'rganadi?

- A) Patopsixologiya psixofarmakologiya.
- B) Deontologiya, neuropsixologiya.
- C) Samatopsixologiya, psixoterepiya.
- *D) Psixogigiyena, psixoprofilaktika.
- E) Psixofarmakologiya, psixoterepiya.

6. Somatik kasalliklar bu?

- A) Ruxiy kasalliklar.
- B) Asab kasalliklar.
- *C) Ichki kasalliklar.
- D) Ruxiy zo'riqish.
- E) Doridan zaharlanish.


2. MAVZU: SHAXS VA SHAXSNING PATOLOGIYASI

Reja:

1. Tibbiyot psixologiyasida shaxs tushunchasi
2. Ong va uni buzilishlari.
3. Xarakter patologiyasi.
4. Shaxs psixologiyasi va psixoprofilaktika.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar.

- shaxs – muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror bir turi bilan shug'ullanadigan ongli individ
- ongli faoliyat – oliy psixik funksiyalardan biri
- obnubilyasiya – (lotincha «nubes» ma'nosi bulut) ongning yengil darajasida buzilishi
- Somnolensiya (lotincha uyquchanlik) mudroqqa o'xshash uyquchanlik holati
- koma – es-hushning batamom yo'qolib qolishi



Shaxsni o'rganish nima uchun kerak?

Shaxs muammolari bilan psixologlar, sotsiologlar, iqtisodchilar, pedagoglar, xuquqshunoslar, shifokorlar va talaygina boshqa mutaxassislar shug'ullanadilar.

Shaxsni ijtimoiy tahlil qilganda, «Odam» va «Shaxs» tushunchalarini farq qilinadi. Odam tushunchasi tabiiy, ijtimoiy tushuncha, shaxs tushunchasi, esa ijtimoiy tushuncha xisoblanadi. Shaxs jamiyat taraqqiyotining maxsulidir. U ajralgan holda emas, balki ijtimoiy hayotning tarkibiy qismidir. Shaxsning ongi o'z qobiliyati haqida tushunchasi, xususiyatlari va jamiyatdagi mavqei uning ixtiyoriga bog'liq bo'lmay, balki odamning jamiyatdagi mavjud munosabatlariga bog'liq bo'ladi.



Nima uchun odamlar ruhiy kasal bo'ladilar?

Ongli faoliyat oliy psixik fuksiyalardan biridir.

Ongni evolyutsion - fiziologik aspektda bosh miya va butun organizmning murakkab integral yuqori faoliyatini ta'minlochi markaziy nerv sitemasining xolati deb ta'riflash to'g'ri bo'lar edi.

Yuqori darajada uyushgan xayvonlarda bu psixik faoliyatdir. Psixoiijtimoiy aspektda ongli faoliyat psixik faoliyatdan ajralmasdir.

Ong hamisha nima haqidadir bilim berishdan iborat, u faoliyat Bilan bevosita bog'liqdir. Har - hil ruxiy kasalliklarda ong, es xush buzilishi mumkin. Ruxiy kasalliklardan tashqari es-xush aynishiga sabab bo'ladigan ta'surotlar bor kalla va miyaning shikastlanishi, intoksikasiyalar, kuchli ruxiy jarayonlar kuchli istma bilan o'tadigan yuqumli kasalliklar (tepkili terlama, bezgak, zotiljam va boshqalar).

Es-xushning aynishi bir necha sekunddan tortib bir necha oyga cho'zilishi mumkin. (Esning kirarli-chiqarli bo'lib turishi, ambulator avtomatizm, isterik letorgiya va boshqalar).

Es-xush aynishining ongning yo'qolishi, buzilishi, to'xtashi tipidagi xillari quyidagilar: obnubilyatsiya (lotincha nubes ma'nosi bulut) ongning eng yengil darajada buzilishi, ong bir necha daqiqa xiralashib tuman bosgandek bo'lib qoladi tevarak atrofdagi vaziyatni bilish, tanish buzilmaydi, obnubilyasiyadan keyin amneziya bo'lmaydi.

Somnolentsiya. (lat. Uyquchanlik) mudroqqa o'xshash uyquchanlik xolati bo'lib, ancha uzoq davom etadi. Tevarak atrofni taniydi, amneziya bo'lmaydi.

Karaxklik, es xushning ancha chuqurroq aynishi. 3 ta darajasi farqlanadi.

- A) yengil
- B) o'rta
- B) qattiq

A) yengil-kasal uyquchan sekin, kam gapiradi, charchoq uyqusi kelayotganidan noliydi.

B) o'rta uyquchanlik ancha kuchayadi, kasal o'z xolicha gapirmaydi savollarga ancha kechikib bo'lsa ham javob beradi.

B) qattiq-kasal uxlab yotadi qattiq chaqirish silkitish bilan arang chaqirsa bo'ladi, savollarga kechikib bir hilda javob beradi.


Sopor - kasal qattiq og'riq ta'sirotlaridan boshqa hech qanday ta'sirotlarga (so'z, issiqlik va boshqalar) javob bermaydi igna sanchishga qo'l, oyoq reflektor yo'l bilan javob beradi.

Koma es xushning botamom yo'qolib qolishi. Ongning sifat o'zgarishlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Deliriy - joy, vaqt, vaziyatni ajratish qobiliyati buzilib, o'z shaxsini tanish saqlanib qoladi. Odam serxarakat, vahimaga soladigan qo'rquv eshituv gallyusinatsiyalari yopirib keladi.

Amentsiya bu xolat og'ir va uzoq vaqt davom etadigan kasalliklarda (infeksiya septikotimiya va x.z) ko'zga tashlanadi Atrof vaqt va o'z-o'zini bilmay qoladi nutqi uzoq yuluq. Be'morlik holati uzoq davom etishi mumkin. Xolat o'tgandan keyin amensiya xolatidagi kechinmalardagi xotiralar saqlanib qolmaydi.

Oneyrond bu xolatda xarakatlar sekinlashadi odam ajoyib-g'aroyib tushlar ko'rgandek shirin hayollar dunyosiga cho'mgandek bo'ladi. Ko'proq infeksiyalar, shizofreniyada ko'riladi.



Odam salomatligini saqlashda xarakterning qanday ahamiyati bor?

Atoqli psixaitorlar S. A. Suxanov va P. B. Gannushkin tibbiyot-xarakteralogiyasiga katta xissa qo'shdilar isterik, psixastenik, epileptik va boshqa xarakterlarning yorqin tasviri Suxanovqa olamiga mansub Gannushkinning ishlari psixopatiyalarga bag'ishlangan edi. Psixopatiyalarni tushunish uchun patologik xarakter tushunchasi asosiy xisoblanadi. Patologik xarakter deganda ayrim xossalari odamning boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini buzishga olib bora oladigan va uning normal

faoliyatiga to'sqinlik qiladigan xarakter tushuniladi. Xarakterning patologik o'zgarishlari psixopatiyalarda keskin ifodalangan bo'lsa, nevrozlarda sustroq bo'ladi. Bu o'zgarish nevrozlarda turmushdagi noqulay shart-sharoit ta'siri bilan kelib chiqadi. Nevrotik xarakter xususan isterik va psixastenik xarakter turmush va tarbiya shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Lazurskiyning tabiiy tajribasidan foydalanib sog'lom va kasal bola yoki katta odam shaxsini ta'riflash uchun qimmatli ma'lumot olsa bo'ladi. Xaar bir kishining o'z salomatligiga ma'suliyat bilan jiddiy qarash psixik gigiyena va profilaktika masalalarida muhim rolni o'ynaydi. Kishining o'z salomatligiga ehtiyotlik bilan qarashi ijtimoiy onglilikning ifodasidir chunki odamning salomatligi shaxsiy boyligi bo'libgina qolmay balki ijtimoiy jixatdan ham qimmatlidir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Shaxs deb nimaga aytiladi?
2. Ong nima?
3. Ong buzilishlarini sanab o'ting?
4. Xarakter patologiyasi deganda nimani tushunasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasiddan test savollari

1. Ongning buzilishi holatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Deliriy, eyforiya, emotsiya
*B) Obnubilyasiya, somnolensiya, sopor
C) amensiya bulimiya, afaziya

- D) oneyroid, amneziya, anoreksiya
- E) somnolensiya, afaziya, emotsiya

2. Ongning hiralashuvi holatiga quyidagi holatlardan qaysi qatori mos keladi?

- A) quloq bitishi, xushdan ketish, koma
- B) ambulatoriya avtomatizm, somnolensiya
- C) depersonalizasiya, afaziya, agrafiya
- *D) deliriy amensiya, Oneyroid
- E) bulimiya, sopor, xushdan ketish

3. Quyidagi tiplardan –qaysi qatordagisi xoleriklarga mos keladi?

- *A) kuchli, muvozanatlashmagan, xarakatchan
- B) kuchli, muvozanatlashgan, xarakatchan
- C) kuchli, muvozanatlashgan, inert
- D) kuchsiz, muvozanatsiz, sust
- E) kuchsiz muvozanatli xarakatchan

5. «Somnolensiya» qanday ma'noni anglatadi?

- A) amentiv holat
- B) tushga o'xshash holat
- C) es-xushning buzilishi
- * D) lotincha «Uyquchanlik» ma'nosi
- E) lotincha «bulut» ma'nosi

3. MAVZU: BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI

Reja:

1. Sezgi va idrokdagi buzilishlar.
2. Xotira patologiyasi.
3. Tafakkur taraqqiyotidagi buzilishlar.
4. Nutq faoliyati buzilishlari.

Tayanch tushunchalar

Gipesteziya – sezgi buzilishi turi (kam ta'sirchanlik)

Gipomneziya – xotiraning pasayishi

Oligofreniya – aqlning tug'ma o'smay qolganligi

Demensiya – orttirilgan aqli zaiflik



Nega odamlar turlicha sezadilar?

Sezgilarning buzilishi analizatorlar periferik bo'limlarining faoliyati izdan chiqqanida hammadan ko'p ma'lum bo'ladi. Sezgilarning buzilishi juda xilma-xildir bular:

Giperesteziya (o'ta ta'sirchanlik), gipesteziya (kam ta'sirchanlik), anesteziya (sezuvchanlikning yo'qolishi), paresteziya (lovullash, sanchib og'rish, tortishish).

Bunday buzilishlar nerv tolalarining xususan tomir innervasiyasining organik va funksional buzilishlarida ro'y berishi mumkin. Sezgilar orasida eng ko'p azob beradigani og'riqdir. Og'riq shakllanishida qobiq, shuningdek qobiqosti xosilalari ishtirok etadi.

Og'riqning signal ahamiyati-xavf solayotgan kasallikni ogoxlantirishdir.

Ayrim patologik xolatlarda ayniqsa, psixik va asab kasalliklarida idrok qilish akti buzilishi mumkin.

Murakkab bilish jarayonlarining buzilishi agnoziyalar deb ataladi. Kurish, eshitish va taktik agnoziyalar farqlanadi. Ular tomir kasalliklari, travmalar, shish jarayoni va boshqa patologik xolatlarda bosh miya qobig'ining lokal shikastlanishida paydo bo'ladi.

Bosh miya organik shikastlanganda, kam xollarda esa zaxarlanishlarda va somatik kasalliklarda derealizatsiya tipidagi idrok buzilish ro'y berishi mumkin.

Bu murakkab patologik xolat bo'lib, bunda ongning o'ziga xos buzilishi bilan boruvchi idrok buzilishi kuzatiladi. Turli kasalliklarda xotiraning ayrim jarayonlari; esda saqlash, esga tushirish buzilishi mumkin. Buzilishning eng ko'p uchraydigan turlari gipomneziya, amneziya va paramneziya.

Gipomneziya-xotiraning pasayishi bo'lib, charchash vaqtida og'ir kasallikdan so'ng paydo bo'ladi. Kishi sog'aygach xotira joyiga keladi.

To'liq amneziya (qandaydir vaqt orasida ro'y bergan voqealar esdan chiqib qoladi) Qarilikdagi psixozlarda, miyaning og'ir shikastlanishida, karbon oksidi bilan zaxarlanganda kuzatiladi.

Amneziyalarni-retrograd va anteregrad turlari bor.

Retrograd-kasallik, shikastlanishdan oldin bo'lgan voqealar esdan chiqib ketadi.


Anteregrad amneziya-kasallikdan keyin bo'lgan voqealar esda qolmaydi.

Paramneziya (esga tushurishning buzilishi).

Paramneziyaning konfabulyasiya va soxta reminissensiya turlari farqlanadi.

Konfabulyasiya-xaqiqatda bo'lmagan voqea va faktlar xotirada nomoyon bo'lib, bemorlar atrofida gilarni aldash istagisiz amalga oshiradilar. (alkogolizimli bemorlar, psixozlarga uchraydi).

Soxta reminissensiya (noto'g'ri xotiralar) konfabulyasiyadan barqarorligi bilan farq qiladi.



Tafakkurning buzilishi inson aqliy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Tafakkurning asosiy tasniflari quyidagilar:

1. Sur'at, tezlik
2. Izchillik (grammatik va mantiiqiy)
3. Sobitqadamlik.
4. Samaradorlik.

Tafakkurning buzilishi faqat bosh miyaning organik shikastlanishida va psixik bemorlarda emas balki bir qator samatik kasalliklarda ham uchraydi.

Aql buzilishining asosiy formalari oligofreniya (aqlning tug'ma o'smay qolganligi) va demensiya (ortirilgan aqliy zaiflik) dir.

Oligofreniya turli darajada ifodalanadi. U og'irlik darajasi jixatidan debillik, imbesillik, idiotiyaga bo'linadi.

Debillik- oligofreniyaning yengil darajasi. Debillikda maxsus maktabda ta'lim oluvchilarni ayrim qobliyatlarini saqlanib qoladi.

Umumlashtirish va abstraksiyalash qobliyatini pasaygan bo'ladi.

Debillar tashabbussiz bo'lib jismoniy mexnatga qobil bo'ladi.


Imbesillik-aqli zaiflikning o'rta darajasi. Imbesillning nutqi kambag'al va duduqlanib gapiradi. Amalda ularni o'qitib bo'lmaydi.

Idiotiya- Aqli zaiflikning og'ir darajasidir. Bunda bemorlar psixikasi va nutqi amalda butunlay yo'q bo'ladi.

Demensiya- orttirilgan aqli zaiflik, global (yalpi, bir-biriga o'tgan) va uchoqli (lakunar) aqli zaiflikka bo'linadi.

Yalpi aqli zaiflikda aqliy qobiliyat qo'pol ravishda buziladi Xotira keskin buziladi. Global demensiya bosh miyaning og'ir shikastlanishi, insult, gipertoniya, keksa yoshda avj olishi mumkin.

Lakunar (qisman) aqli zaiflikda aql qisman izdan chiqadi, biroq fikriy jarayonlar sekinlashadi xotira pasayadi. Lakunar zaiflik qarilik oldidan og'ir somatik kasalliklarda uchraydi.



Nutq inson hayotida qanday ahamiyatga ega?

Nutq - til vositalaridan foydalanadigan o'ziga xos insoniy faoliyat normasidir. Til esa kishilarning bir-birlari bilan muomala qilish vositasidir.

Nutq odatda tovush, ovoz bilan talaffuz etiladi; ba'zan odam tovushsiz nutq, shivirlashdan foydalanadi.

Gohida esa ovoz nerv tizimining funksional kamchiliklari tufayli vaqtincha yo'qolib qoladi. Nutqning shu tariqa izdan chiqishi afoniyalar deb ataladi.

Yozuv layoqatining buzilishi agraftiya deyiladi. Bu ko'proq bosh miya turli bo'limlari: optik zona, nutq zonasi, xarakat zonasidagi o'choqli shikastlar munosabati bilan kelib chiqadi.

Yozish layoqatining o'ziga xos tarzda buzilishi klinikada «yozuv spazmi» deb ataladigan bo'ldi.

Nutq buzilishi afaziya deyiladi. Odatda afaziya bosh miya qobig'ininng nutq zonasi kasallik tufayli o'choqli, lokal shikastlanishi tufayli sodir bo'ladi. Nutq yagona funksional sistema bo'lib, uning barcha tomonlari bir-biri bilan bog'liqdir.

Afaziyalarning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladiki ularda ko'pgina umumiy va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlar bo'ladi.

Afaziya motor, sensor, amnestik, semantik afaziyalarga ajratiladi.

Motor afaziya-so'zlarni talaffuz qilishga qobiliyatsizlik yoki bu qobiliyatning sezilarli ravishda pasayishidir. Bemorlar bir necha so'z yoki bo'g'inlarnigina ayta oladilar.

Bunday buzilish chap yarimsharning peshona burmasining quyi bo'lagi shikastlangan o'choqda bo'ladi –Brok markazi.

Sensor afaziyada kasal o'ziga qarata aytilgan nutqni yaxshi tushuna olmasligi bilan bir qatorda uning mustaqil nutqi izdan chiqadi, lekin eshituv layoqati bir qator saqlanib qolgan bo'ladi. Sensor afaziya bilan og'rigan bemorlarda motor afaziya bilan og'rigan bemorlarga nisbatano'zlariga qaratilgan nutqni tushinish ko'proq yomonlashgan bo'ladi. Sensor afaziya uchun nutq beqarorligi xarakterlidir.

Amnestik afaziyada asosiy yomonlashuv predmetlarning normalarini unutib qo'yishdan iborat bo'ladi. (Nutq uchun yetakchi bo'lgan yarim sharning orqa bo'yin qismi shikastlangan bo'ladi) Bemor suratda tasvirlanagan qilichni miltiq deb ataydi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Sezgilar buzilishining asosiy turlarini tasvirlab bering?

2. Agnoziya haqida nimalarni bilasiz?
3. Xotira buzilishining qanday turlari bor?
4. Motor afoziya sensor afazidan nima bilan farq qiladi?
5. Aql buzilishining asosiy formalarini ayting?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997 yil.

2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Tug'ma yoki yosh go'daklik vaqtida boshdan kechirilgan kasallik tufayli psixikaning rivojlanishdan orqada qolishi nima deb ataladi?

*A) oligofreniya

B) eyforiya

C)oneyroid

D) karaxtlik

E) afaziya

2. Og'riq sezgisining batamom yo'qolishi nima deb ataladi?

A) giperesteziya

B) gipesteziya

*C)anesteziya

D) paresteziya

E) amneziya

3. Turli kasalliklar, patologik jarayonlar tufayli bosh miya po'stlog'i cheklangan holda shikastlanganida ko'ruv, eshituv, kinestetik sezgilarning buzilishi nima deb ataladi?

*A) agnoziya

B) amneziya

C)sinesteziya

D) sensibilizasiya

E) afaziya

4. «Xotira ruhiy hayotning asosiy sharti, ruhiy rivojlanishning negizidir» - degan fikrni Kim aytgan?

A) S.S. Korsakov

B) M.A. Svyadoshch

C) I.M Sechenov

D) I.P. Pavlov

E) A.Luriya

5. Yozma nutqning yomonlashuvi kasalligi nima deb ataladi?

A) afaziya

B) dizartriya

*C) agrafiya

D) afoniya

E) amneziya

4. MAVZU XIS-TUYG'ULAR VA ULARNING KASALLIK MUNOSABATI BILAN O'ZGARISHI.

Reja:

1. Emosional holatlarning kelib chiqishi.

2. Fiziologik va patologik affekt.

3. Maniakal depressiya va eyforiya.

4. Bemorlar xis-siyotiga ta'sir etish.


Tayanch tushunchalar.

Affekt - qisqa muddatli to'satdan paydo bo'ladigan kuchli ruhiy hayajonlanish

Depressiya – kayfiyat buzilishining bir turi bo'lib, doimo g'amgin, yomon kayfiyatda yurishdir

Eyforiya – depressiyaga qarama-qarshi vaqtinchalik, beg'amlik, bir oz ko'tarinki kayfiyat

emotsiya – tevarak-atrofdagi voqealar bilan bog'liq bo'lgan qisqa muddatli holat



Inson va hayvon emotsiyasida farq bormi?

«Emotsiya» termini lotincha «Emovere» to'liqlantirmoq degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ular psixik va somatik jarayonlarni tartibga solishda katta ahamiyatga egadir.

Emotsiyalarning organizm faoliyatidagi fiziologik roli kattadir.


Hayvonlarda emotsiyalarning funksiyasi nixoyatda baxolovchi bir butun funksiya bo'lib, harakat qilishga undovchi faoliyat bilan bevosita bog'liqdir.

Odamning emosional hayotida bosh miya po'stlog'i va u bilan bog'liq bo'lgan 2-signal sistemasi faoliyati katta ahamiyatga ega.

Qo'rquv va g'azab emotsiyalarida qonda adrenalin miqdori ko'payadi. Affektda qonga qalqonsimon bez garmoni tushishi ko'payadi. Shuningdek gipofizning inkretor faoliyati oshadi. Salbiy emotsiyalar me'da osti bezi shirasi sekresiyasining kamayishiga olib keladi. Ijobiy (musbat) emotsiyalarda me'da shirasi kislotaliligi oshadi.

Emotsiyalar yurak – tomirlar sistemasi va arterial bosimga kuchli ta'sir qiladi.

Emotsiyalar ta'siri ostida qonda shaklli elementlar miqdori, kislota ishqor muvozanati va gemostoz siljishining boshqa ko'rsatkichlari o'zgaradi.



Affekt qanday sodir bo'ladi?

Affekt (jazava) bu nihoyatda aniq ifodalangan, lekin qisqa vaqt davom etadigan emotsiya to'satdan paydo bo'ladigan

kuchli ruhiy hayajonlanish.

Darg'azablik, rashk, jaxl, quvonch jazavasi va boshqa jazavalar bo'ladi.

Aql idrok nazorati ostida bo'lgan jazava fiziologik jazavadir.

Patologik jazavada odam o'z qilmishlarini boshqarish va o'z hatti-harakatlaridan o'ziga hisob berish layoqatini yo'qotib qo'yadi.

Jazava o'tib ketgach nimalar qilganini eslay olmaydi. Patologik affektlar asosan psixopatlarda, nevrotik xolatlar va ba'zi psixozlarda ro'y beradi. Emosional reaksiyalarning tabiati ularni boshqara olish layoqati odam shaxsiyatining xususiyatiga bog'liqdir.

Emotsiyanallikning har-hil ko'rinishi-susayishi, pasayishi klinikada diagnostik va terapevtik jixatdan katta ahamiyatga ega. Emosionallikning umuman pasayib qolishi apatiya holati dayiladi.



Kayfiyat nega o'zgarib turadi?

Psixikaning turli-tuman buzilishlari orasida emosional patologiya ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bu avvalo emosional qo'zg'aluvchanlik darajasiga taluqli. Garchi bu daraja har kimda har hil bo'lsada, biroq klinikada keskin pasayib ketgan qo'zg'aluvchanlikni kuzatishimiz mumkin.

Kayfiyat buzilishlari emosional soxaning tez-tez bo'lib turadigan buzilishlari qatoriga kiradi. Kayfiyat buzilishining 3 ta asosiy turi; disforiya, depressiya va eyforiya tafovut qilinadi.

Disforiyada odam injiq, o'zidan va atrofida gilardan ko'ngli to'lmaydigan, asabiylashgan bo'ladi. Bu alomatlariga tundlik, adovat va jaxldorlik qo'shilishi mumkin.

Depressiya – doimo g'amgin, yomon kayfiyatda yurishdir. Bunda bemorlar boshqalarga aralashib ketolmaydi, kam gapiradi, ko'pincha ko'ziga yosh oladi. Uning dili ma'yus, yomon fikrlar va hayollar bilan band bo'ladi. xozirgi axvoli, o'tgan kunlari va kelajagi unga qorong'u bo'lib tuyuladi. Depressiv kayfiyat turmushdagi muvaffaqiyatsizliklar va ruxiy shikastlar oqibatida kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Ruxiy kasalliklarda bemorda ovqatdan yuz o'giradigan, o'zini qatl qilishga urinishgacha olib boradagan, uzoq davom etadigan og'ir depressiyalar kuzatiladi.

Eyforiya deganda biz vaqtichog'lik, beg'amlik, bir oz ko'tarinki kayfiyatni tushunamiz, Eyforiyada odam tetik, xarakatchan, sergap, uning imo-ishoralari jonli gapirganda qo'llari xarakatda, ovozini keragidan balandroq qilib chiqaradi. Olam ularning ko'ziga g'oyat chiroyli, rangli bo'yoqlarda gavgdalanadi. Odam xursand bo'lganida, muvaffaqiyat qozonganida va shunga o'xshash shodlik kunlarida eyforiya normal reaksiya hisoblanadi. Bordi-yu, eyforiya uchun psixologik asoslar bo'lmasa yoki u xatto salbiy hayotiy hodisalarda ham paydo bo'lsa, uni patologik holat deb ko'zdan kechirish kerak.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Emotsiyalarning fiziologik vazifasi nimadan iborat?
2. Kayfiyat nima?
3. Disforiya nima?

4. Affekt holatini tushuntiring?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

- yil.
1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997
 2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
 3. Psixologiya Slovar 1990
 - 4 Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
 - 5 Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasisidan test savollari

1. Emotsiyaga berilgan to'g'ri javob qatorini aniqlang?
A) Uzoq muddatli kuchli ruhiy holat
*B) Tevarak atrofdagi voqealar bilan bog'liq qisqa muddatli holat
C) To'satdan paydo bo'ladigan kuchi ruhiy holat
D) Sezgi va idrok bilan bog'liq ruhiy holat
E) U yoki bu narsaga muttasil intilishda paydo bo'ladigan ruhiy holat
2. Affekt (jazava)ga tushganda qonga qaysi ichki sekresiya bezi ko'p modda ajratadi?
A) me'da osti bezi
B) yosh bezi
C) gipofiz
*D) qalqonsimon bez garmoni
E) epifiz
3. Ijobiy emotsiyalarda qonga qaysi modda ko'p ajraladi?
*A) me'ja osti bezi shirasi
B) qalqonsimon bez garmoni
C) epifiz
D) gipofiz
E) adrenalin
4. Disforiyada odamda qanday kayfiyat xukmron bo'ladi?
A) g'amginlik, kamgaplik, yomon fikr bilan bandlik

- B) vaqtichog'lik, beg'amlik, harakatchan
- C) sergap ovozi baland, tetiklik
- D) yig'i, mayuslik, g'amginlik
- *E) injiqlik, tundlik, adovat, jaxdorlik

5. MAVZU: NORMA VA PATOLOGIYADA HARAKAT AKTLARI VA IRODAVIY JARAYONLAR.

Reja:

1. Ish harakatlarning buzilishi.
2. Iroda buzilashlari.
3. Harakat aktlari va irodani tekshirish.

Tayanch tushunchalar.

Motiv – faoliyatga undovchi kuch yoki sabab

Gipobuliya – iroda faolligini kamayishi

Abuliya – irodaning keskin ziflashuvi, istakning yo'qolishi

Ergograf – muskullar ish qobiliyatini va charchash dinamikasini o'rganish uchun maxsus asbob

Kishiga shaxs sifatida baho berishda uning hulq atvori, faoliyati birinchi darajali ahamiyatga egadir. Faoliyatni ta'rifi uchun motiv, maqsad va faoliyatni amalga oshirish usuli degan tushunchalar muhim hisoblanadi.

Inson faoliyati ish harakatlar bilan ifodalanadi. Ish harakatlar o'z navbatida harakatlardan tashkil topadi.


Ruhiy kasalliklar uchun ish harakatlarning turli shaklda buzilishi harakterlidir. Murakkablagi jihatidan har hil bo'ladigan ongli ish harakatlar o'rnini ko'pincha oddiy, avtomatlashgan ish harakatlar egallab oladi. Bunday kasallarning harakati va nutqida stereotipiya ko'riladi (bir hildagi harakat va so'zlarni takrorlash)

Ish harakatlarning buzilishi apraksiyali kasallarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Apraksiyalar miyaning harakat analizatoriga qarashli qismlari shikastlanganida, ko'pincha tepa sohalari shikastlanganida ko'riladi.

Insonning xatti harakatlari va amallari beixtiyor va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Beixtiyor amallarida ongning ishtirok etishi shart emas. Beixtiyor xarakatlardan farqli ravishda iroda yoki ixtiyoriy xarakatlar, oldimizga qo'yilgan aniq maqsadga erishish uchun ularni ongli ravishda tartibga solishga qaratilgan holda amalga oshiriladi.

Irodani ishga solish, irodali bo'lish uchun inson o'z oldidagi to'siqlarni yenga olishi darkor. Irodali bo'lish xar kimning o'ziga bog'liq. Shu jixatdan irodasi bo'sh odamlar farq qilinadi.

Odamning irodasi tarbiya, o'qish va mehnat faoliyatida vujudga keladi. Turmushda uchraydigan qiyinchiliklar iroda bilan yengiladi. Bunda bolalikdagi tarbiyaning ahamiyati beqiyos.



Irodasizlik nima?


Irodaviy faoliyatning buzilishi har xil bo'ladi. Ayniqsa ular psixik kasalliklarda (katotonik sindrom) va bosh miyaning organik shikastlanishida (apraksiyalar, harakatlarning tangligi) ifodalanadi.

Irodaning buzilishlaridan eng ko'p uchraydigani gipobuliya-iroda faolligining kamayishidir. Bunday bemorlar kam harakat qiladilar, ularda faoliyatga intilish deyarli paydo bo'lmaydi. Ular biror ishni boshlab uni tez to'xtatib qo'yadilar, bunga sabab o'z mashg'ulotini davom ettirish istagining yo'qligidir.

Giperbuliya – bemor kishining haddan tashqari faolligi bo'lib u kamroq uchraydi. Bunday holat pernisiyoz anemiyada paydo bo'lishi mumkin. Samarasiz giperbuliya maniakal holatda bo'lgan bemorlarda kuzatiladi.

Ba'zi bir kasallik holatlarida iroda keskin zaiflashib ketadi ya'ni abuliya paydo bo'ladi.

Abuliyada bemor har qanday faoliyatni to'htatib qo'yadi, barcha istaklardan mahrum bo'ladi. Kasal indamay turaveradi, gapirmaydi, savollarga javob bermaydi.



Irodani tekshirish nima uchun kerak?

Xarakat aktlari va irodani tekshirishda odamning hatti xarakatlarini, bemorlarda esa ularning kasalxonada, mehnat terapiyasi vaqtida qiladigan hatti harakatlarini kuzatib borish katta ahamiyatga ega

Kuzatuvlar tabiiy va tajriba sharoitlarida o'tkaziladi. Tajriba metodini ko'rib chiqiladigan bo'lsa:

muskullar elektr potensialining o'zgarishlari qayd qilib boradigan elektromiografiya, shuningdek odamning harakat reaksiyasini hisobga olishga imkon beradigan har hil reaktometrlardan foydalaniladi.

Muskullarning ish qobiliyatini barqarorligi va charchash dinamikasini o'rganish uchun maxsus asbob-ergografda tekshirish uchuli keng qo'llaniladi.

Irodaviy ish-harakatlarga miqdor jixatidan baho berish katta qiyinchiliklarni tug'diradi. Sabotlilik (iroda kuchik)ga ob'yektiv ta'rif berish uchun odam tomonidan bajarilgan vazifa bilan o'sha irodaviy akt vaqtida ro'y beradigan vegetativ reaksiyalarning nechog'lik ifodalanganligi o'rtasidagi nisbatni hisobga olish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari

1. Ish harakat deganda nimani tushunasiz?
2. Apraksiyaga ta'rif Bering?
3. Abuliya nima?
4. Elektromiografiya qanday asbob?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoriT. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Gipobuliya nima?
A) iroda faolligining kuyaayishi
B) iroda faoliyatining to'xtashi
C)iroda faoliyatining buzilishi
*D) iroda faoliyatining kamayishi
E) V va S javoblar to'g'ri
2. Ko'nikma ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

*A) ongli faoliyatning avtomatlashgan komponenti biror bir harakatni tez-tez takrorlashda hosil bo'ladi.

B) faoliyatning so'nggi natijasi

C) faoliyatga undovchi sabab

D) insonga berilgan layoqat

E) faoliyatning maqsadi

3. Abuliya nima?

A) iroda faolligining kuchayishi

B) irodaviy sifat

C) irodaning buzilishi

D) irodani tekshirish usuli

*E) irodaning keskin zaiflashuvi

6. MAVZU: PSIXIKA VA KASALLIKLAR.

Reja:

1. Kasalliklarning paydo bo'lishida psixogen omillarning roli.
2. Psixogeniyalar va samatogeniyalar.
3. Nevroz xolatining psixoin lixanizmi.
4. Psixoz va uning turlari.

Tayanch tushunchalar.

Psixogeniya – organizmda va psixikada odatda shaxs uchun og'ir bo'lgan turli psixik jarohatlarni ta'siri ostida paydo bo'ladigan buzilishlar

Samotogeniya – bular somatik kasalliklar tufayli kelib chiqadigan buzilishlar

Nevroz – psixogen kasalliklar natijasida ro'y beradigan holat

Reaktiv psixoz – ruhiy jarohatga yoki ko'ngilsiz hodisaga javoban vujudga keladigan psixotik pog'onadagi potologik jarayon.



Ichki kasalliklar nima uchun inson psixikasiga ta'sir qiladi?

Tibbiyot psixologiyasi psixik xolatning somatik holatga va somatik kasalliklarning psixikaga ta'sirini o'rganishning o'z vazifalari qatoriga kiritadi. Psixik jarayonlar bilan organizmning o'zaro bog'liqligi psixologiya va tibbiyotning asosiy vazifalaridan biridir.

Psixik omillar ta'siri ostida kelib chiqadigan kasalliklar psixogen kasalliklar yoki psixogeniyalar deyiladi.

Psixogeniyalar –organizmda va psixikada odatda shaxs uchun og'ir bo'lgan turli psixik jarohatlarning ta'siri ostida paydo bo'ladigan buzilishlardir.


Psixogeniya omillari ta'siri ostida somatik soxada quyidagi buzilishlar sodir bo'lishi mumkin.

Me'da ichak trakti tomonidan-ko'ngil aynish, qusish, ichburug', qabziyat, anoreksiya (ishtahaning yo'qolishi); nafas olish a'zolari tomonidan-

nafas siqilishi, nafas bo'g'ilishi, yo'tal: yurak-tomir sistemasida-arteriya bosimining psixogen ko'tarilishi, taxikardiya, bradikardiya, yurakda og'riq his qilish, yurak faoliyati maromining buzilishi.

Psixik kasalliklar somatik sabablari tufayli kelib chiqadigan bo'lsa, ular samotogen kasalliklar yoki samotogeniyalar deb ataladi. Infeksiyalar, intoksikatsiyalar, ichki a'zolarining kasalliklari ko'pincha, psixik buzilishlarning manbai hisoblanadi. Bu ko'proq yurak kasalliklarida, yuqumli kasalliklarda kuzatiladi.

Ayrim hollarda psixogen omillar samotagen omillar bilan qo'shilib, o'zaro bir-birini kuchaytirishi mumkin



Nevroz qanday kelib chiqadi?

Psixogen kasalliklarning hammadan ko'p tarqalgan formalari, nevrasteniya, isteriya va miyadan nari ketmaydigan xayol nevrozidir. Nevroz so'zi (grekcha – 'neyron' - nerB) so'zidan olingan bo'lib, psixogen kasalliklar, ya'ni oliy nerv faoliyati turmushdagi mushkul axvollar va kechinmalarning psixikaga yomon ta'sir qilishi natijasida ro'y beradigan holatdir.

Nevrozlar tasnifi uchun I.P.Pavlovning odam oliy nerv faoliyati tiplari to'g'risidani ta'limoti katta ahamiyatga ega. Nevrozlar ko'pincha nerv tizimi kuchsiz yoki muvozanatlashmagan kuchli tipdagi kishilarda vujudga keladi.

Odam shaxsining o'zi va uning tarixiy rivojlanish davrida shakllangan butun xususiyatlari nevrozlarning vujudga kelishida muhim rol o'ynaydi.

AyniqSA qiyin va uzoq davom etadigan mushkul vaziyatlar tug'lsa shu mahalgacha soppa sog' yurgan odamlarda ham nevrozning hamma asosiy formalari, jumladan isteriya paydo bo'lishi mumkin.


Biroq isterik xarakter ko'rinishidagi moyillik bo'lsa anna shunda ko'pincha isteriya kelib chiqadi. Isterik xarakter asosan odamning nozik qilib tarbiyalanib, turmushga moslashaolmaydigan, no'noq bo'lib qolishi natijasida shakllanib boradi.

Nevrozning yana bir formasi nevrastenianing paydo bo'lishida xarakterdagi bir qator xususiyatlarni noto'g'ri shakllanishi sabab bo'ladi.

Ota-onalar balalarn kuch va imkoniyatlarini hisobga olmay turib, muvaffaqiyat qozonishga undashi shu hildagi xarakter shakllanishiga imkon beradi.

Odamning yoshlikdan ortiq darajada hissiyotli qilib tarbiyalanishi va ziddiyatli murakkab vaziyatlarda bir qarorga kelishi zarur bo'lib turgan sharoitlarda o'z xarakterlarini bo'g'ib qo'yishga moyil bo'lishi ko'pincha miyadan nari ketmaydigan hayolnevrozining kelib chiqishiga yo'l ochadi.

Bemor kayfiyati pasayib umidsizlik o'z-o'zidan qoniqmaganlikni ifoda etadi. Hayoldan ketmaydigan fikrlar nevrozi uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi, surunkasiga kechish xususiyatiga ega.



Psixoz nima?

Psixogen psixoz (reaktiv psixoz) – ruhiy jaroxatga yoki ko'ngilsiz xodisaga javoban vujudga keladigan psixotik pog'onadagi patologik jarayon.

Reaktiv psixozlar psixogen asab buzilgan holatlarga nisbatan qisqaroq, alomatlari og'irroq, psixomotor va effektiv buzilishlarning kuchliligi, vasvasa gallyusinasiyalar, qo'pol isterik buzilishlar bilan tavsiflanadi.

Reaktiv psixozlarga olib keluvchi sabablar quyidagilar hisoblanadi.

Hayot uchun xavfli bo'lgan vaziyat yaqin kishidan ajralib qolish, tabiiy ofat, xarbiy xolat, xibs, xizmatdagi kelishmovchilik va boshqalar.

Reaktiv holatlarning vujudga kelishida bosh miya holati muhim ahamiyatga ega. Bu holatlar ko'pincha psixopatik shaxslarda, miya shikastlanganda, og'ir somatik kasalliklarda tezda paydo bo'ladi.

O'smirlar va qariyalar ayniqsa tashqi ruhiy ta'sirotlarga chidamsiz bo'ladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Psixogen kasalliklarning asosiy formalarini ayting?
2. odam nerv sistemasi sog'lom bo'lsa, isteriya bilan og'rib qolishi mumkinmi? Isterik xarakterning xususiyatlarini ta'svirlab bering.
3. Psixogen psixozning kelib chiqishining asosiy sabablari nimalar?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990

4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Psixogeniyalarga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?
*A) psixik omillar ta'siri ostida kelib chiqadigan kasalliklar
B) ichki kasalliklar
C) hayajonlanish tufayli kelib chiqadigan kasalliklar
D) miyadan nari ketmaydigan hayol
E) jazavaga tushish kasali
2. Psixogen kasalliklarning ko'p tarqalgan formalari qaysilar?
A) psixoz, afaziya, nevroz
B) eyforiya, isteriya, disforiya
*C) nevrasteniya, isteriya, nevroz
D) depressiya, nevroz, eyforiya
E) disforiya, nevrasteniya, isteriya
3. Stress nima?
A) qisqa muddatli ruhiy holat
B) to'satdan paydo bo'luvchi ruhiy holat
C) his-tuyg'u
D) kuchli ruhiy holat
*E) uzoq muddatli kuchli ruhiy zo'riqish
4. «Odamning oliy nerv faoliyati hususida I.Pavlov tomonidan ajratilgan tiplar nevrozlar kelib chiqishda katta ahamiyatga egadir», degan fikrni qaysi olim aytgan?
A) Selye
B) V.N.Myasishchev
C) Sechenov
D) Luriya
E) Shuls
5. Samotogen kasalliklar ta'rifi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) Kuchli hayajonlanish ta'sirida kelib chiqadigan kasallika aytiladi
- B) Ichki kasalliklar ko'rinishiga aytiladi
- *C) Psixik kasalliklar somatik sabablar tufayli kelib chiqsa, samotogen kasalliklar deb ataladi.
- D) Ruhiy kasalliklar samatogen kasalliklardir.
- E) Nevroz, isteriya kasalliklarini kelib chiqishi samotogen kasalliklar deyiladi.

7. MAVZU. DORILAR VA BOSHQA VOSITALAR BILAN DAVOLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Reja:

1. Farmakologik moddalarning odam psixikasiga ta'siri.
2. Psixofarmakologik vositalari va ularning turlari.
3. Plasebo va uning ta'siri.

Tayanch tushunchalar

Trankvilizator – tinchlantiruvchi psixofarmakologik moddalar guruhi.

Antidepressantlar – psixofarmakologik moddalarning Yana bir guruhi, endogen depressiyada samarali ta'sir ko'rsatadi.


Simpatomimetik moddalar – bular psixikani har hiol tarzda buzulishiga sabab bo'luvchi psixofarmakologik moddalar guruhi.

Plasebo – rangi, ta'mi, hidi jixatidan doriga o'xshash, biroq ta'sir ko'rsatish asosiga ega emas modda

Bizga ma'lumki psixika shifobaxsh ta'sir ko'rsatishning kuchli manbaidir.

Davoning shifobaxsh ekanligiga bemorning qattiq ishonishi faol omil bo'lib, davolashning hamma turlarini amalga oshirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Kasallarni davolashda psixik va farmakologik ta'sirning nisbatini hisobga olib borish ayniqsa muhim. Bu o'rinda ikkita asosiy masalani alohida ko'rsatib o'tish zarurki tibbiyotning turli sohalarida ishlatilayotgan dori preparatlarining soni ancha ko'paygan xozirga davrda ana shu masalalar ayniqsa dolzarb bo'lib qolgan: 1.farmakologik moddalarning odam psixik holatiga ta'siri va 2.farmakologik moddalarning odamga uning psixikasi holatiga qarab har-hil ta'sir ko'rsatishi.



Choy, kofe psixikaga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?

Zamonaviy tibbiyotda ishlatib kelinayotgan moddalarning ba'zilari psixik xolatni o'zgartirish maqsadida juda qadimiy zamonlardan beri qo'llaniladi.

Tarkibida narkotik moddalar bo'ladigan o'simliklar, masalan: opiy, qoradori bo'ladigan ko'knori yoki nasha singari o'simliklar shirin hayollar surib kayf qilish va og'riqni qoldirish uchun ichilgan hamda chekilgan. Qadimdan choy, kofe koka o'simligining barglari qo'zg'atadigan va tetiklantiradigan moddalar o'rniga ishlatib kelingan. Kayfu ruhiyatni yaxshilash maqsadida ichkilik ichilishi barchaga ma'lum.

Yuqorida aytilgan moddalarning ijobiy ta'sirigina emas balki ular uzoq iste'mol qilinadigan bo'lsa, psixikaga halokatli ta'sir ko'rsatishi ham ma'lum.

Ichkilik, narkotik moddalarga xaddan tashqarii xirs qo'yib, shu moddalarni tobora ko'proq miqdorda iste'mol qilib turushga ruju qo'yish og'ir jismoniy va ruhiy kasalliklarga olib keladi.

Bir qancha moddalarning narkotik ta'siridan xirurgiyada narkoz uchun keng foydalaniladi.

Narkoz yunoncha uyqu demakdir. Biroq narkotik moddalar ta'siri bilan dori berib vujudga keltiriladigan uyqu shu qadar qattiq bo'ladiki, murakkab va uzoq davom etadigan operatsiyalarni qilishga imkon beradi.

Psixofarmakologik vositalar guruxini narkotik moddalar, trankvilizator, antidepressantlar, simpatomimetik moddalar tashkil etadi.

Xozirgi kunda tibbiyotda narkotik moddalar, avvalo, oliy preparatlari (morfin, kodein, pantopan va boshqalar) tinchlantiruvchi xloralhidrat, shuningdek barbiturat kislota unumlari (lyuminal, medinal, nembutal, amitil-natriy va boshqalar) «barbituratmas» uxlatadigan dorilar noksiron, dimerin ishlatiladigan bo'ldi.

Trankvilizatorlar (tinchlantiruvchilar) ya'ni psixofarmakologik moddalardan keyingi yillarda keng foydalanilmoqda.


Bular markaziy nerv tizimi qo'zg'atuvchanligini susaytirib, ruhiy qo'zg'alishni bartaraf etib yengil mudroqqa sabab bo'ladi va uxlatadigan dorilar bilan birga qo'llaniladi.

Trankvilizatorga aminazin, rezerpin, meproamat, librium va boshqalarni kiritish mumkin.

Psixofarmakologik moddalarning yana bir guruhini antidepressantlar tashkil etadi.

Bular kayfu ruhiyat pasayganda, xususan ichki shart-sharoitlar munosabati bilan kelib chiqadigan ya'ni endogen degan depressiyalarda yaxshi kor qiladi. Antidepressantlar aqliy va emosional tormozlanish bilan

birga davom etadigan somatik kasalliklarda ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda.



Plasebo nima?

Farmakologik moddalarning ta'siri bemor nerv tizimi va psixikasining ahvoliga ko'p darajada bog'liq. Shu munosabat bilan ya'nigi dori moddalarni tekshirishda so'ngi vaqtlarda plasebo usulidan foydalanilmoqda.

Plasebo – tashqi xossalari, rangi, hidi, ta'mi jixatidan dori moddasiga o'xshab ketadigan, biroq ta'sir ko'rsatadigan asosi bo'lmaydigan kontrol moddadir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Nerv tizimini stimullaydigan farmakologik moddalardan ayting.
2. Antidepressantlar qanday hollarda qo'llaniladi, ularning ta'siri qanday?
3. Plasebo nima?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Narkoz so'zining ma'nosini toping?
A) og'riqsizlantirish
B) gallyusinasiya
C) grekcha qo'zg'alish
*D) yunoncha uyqu demakdir
E) lotincha tinchlantirish

2. Plasebo nima?

A) tinchlantiruvchi modda

B) kuchli zaxar

*C) rangi, hidi doriga o'xshash ta'siri yo'q modda

D) burishtiruvchi modda

E) uxlatuvchi moda

3. Morfin qanday moddalar tarkibiga kiradi?

*A) narkotik moddalar

B) trankvilizatorlar

C) antidepressantlar

D) simpatomimetik moddalar

E) barbituratlar

4. Medisina amaliyotiga kiritilgan «Qurolli ishontirish» terminiga Kim asos solgan?

A) Lebedinskiy

B) Pavlov

C) I. Shuls

*D) Sharko

E) Libik

8. MAVZU. PSIXOTERAPIYA

REJA:

1. Psixoterapiya haqida tushuncha.
2. Psixoterapevtik metodikalar va ularning qo'llanishi.
3. Psixoterapiyaning ahamiyati.


Tayanch tushunchalar

Inontirish – bir odamning ikkinchi odamga psixologik yo'l bilan o'ziga xos tarzda ta'sir qilishdir.

Gipnoz – ug'oqlik bilan uyquga o'tish orasidagi uyqu holati

Autogen mashq -- bemorning o'zi bajaradigan mashq, psixoterapeyaning keng tarqalgan metodi

Psixoterapiya – davo maqsadlarida bemor yoki bemorlar guruhi psixikasiga ta'sir ko'rsatish jarayoni



Nima uchun psixoterapiyadan foydalaniladi?


Psixoterapeya – davo maqsadlarida bemor yoki bemorlar guruxi psixikasiga (bir yo'la) ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Davo maqsadida kasal psixikasiga ko'rsatiladigan har handay ta'sir ham psixoterapiya jumlasiga kiravermaydi. Masalan, psixafarmakologiya preparatlar bilan psixikaga ta'sir ko'rsatish psixoterapiya emas.

Psixoterapevtik ta'sirning asosiy turi so'z bilan ta'sir ko'rsatishdir. Biroq har qanday so'z ham davo bo'lavermaydi.

Ba'zi hollarda psixoterapiya asosiy davo usuli bo'lsa (nevrozlar, alkogolizm, duduqlanish, ba'zi ichki kasalliklar, teri kasalliklari va boshqalar), boshqa kasalliklarda u zarur yordamchi vosita hisoblanadi (ko'pgina ichki kasalliklarda, operasiyaga tayyorlanish va operasiyadan keyingi davrda akusherlik, ginekologiya va boshqalarda)

Psixoterapiyaning xajmi va metodikasi kasallarning yoshiga, kasallikning xarakteri, shaxsiyat xususiyatlariga, davo olib borilayotgan muassasaning xususiyatlariga qarab har xil bo'ladi.



Har bir usulning o'ziga hos tomoni nimada?

Psixoterapevtik metodikalarning hammasini shartli ravishda inontirish, ishonch hosil qilish va faollashtiruvchi psixoterapiyaga bo'lish mumkin.

Bundan tashqari, individual va jamoa psixoterapiya tafovut qilinadi.

Inontirish – bir odamning ikkinchi odamga psixologik yo'l bilan o'ziga xos tarzda ta'sir qilishdir. Inontirish bosh miya po'stlog'ida konsentrlangan ta'sirlanish o'chog'idir, bu o'chog' manfiy induksiya tufayli o'z atrofida tormozlanish zonasini hosil qiladi. Inontirishning gipnoz holatida inontirish, tabiiy uyqu holatida inontirish, uxlatadigan yoki narkotik dorilar berilgandan keyingi inontirish (narkogipnoz) uyg'oqlik vaqtida inontirish va o'z-o'zini inontirish kabi turlari tafovut qilinadi. **Gipnotik xolat** (gipnoz) – uyg'oqlik bilan uyquga o'tish orasidagi chala uyqu holatidir.

Bemorning gipnoz qilishning ko'pgina usullari mavjud. Gipnotik holat yuzaki, o'rta va qattiq gipnozga bo'linadi. **Yuzaki gipnozda** ko'z qovoqlari va qo'l-oyoqlar og'ir tortib, mudroq bosadigan, ko'pincha puls va nafas siyraklashib qoladigan holatdir.

O'rtacha gipnoz – yengil uyqudir, kasal ko'zini ocholmaydi, so'z bilan ta'sir ko'rsatib, harakat sferasi bilan sezgi sferalarida o'zgarishlarni keltirib chiqarish mumkin.

Qattiq chuqur gipnoz – ro'yirost gipnotik uyqudir.

Rapport (miya po'stlog'ida sergak qolgan alohida punkt hisobiga vrach bilan bemor o'rtasida bog'lanadigan aloqa) tamomila alohidalanib qoladi (ya'ni vrachdan boshqa kishi kasal bilan aloqa qila olmaydigan bo'lib qoladi).

Tabiiy uyqu holatida inontirish.

Bu usul asosan bolalarda qo'llaniladi.

Uyqu vaqtida ko'pgina odamlar inson nutqini idrok eta olish qobiliyatini saqlab qoladi, shuning uchun bemor uyg'oqligi vaqtida uning oldida aytish mumkin bo'lmagan narsalarni kusal uxlab yotgan paytida ham gapirish mumkin emas.

Uxlatadigan yoki narkotik moddalarni berib inontirish.

Bemor yetarli gipnobel bo'lmasa (gipnozga tez berilmaydigan bo'lsa) va boshqa ba'zi hollarda narkogipnozdan foydalaniladi. Bemorga uxlatadigan dori ichiriladi yoki venasiga yuboriladi. Odamni uyqu bosib turgan paytda so'z bilan ta'sir ko'rsatib inontiriladi.

Uyg'oqlik holatida inontirish gipnozdan tashqari paytda ham inontirish shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi.

Uyg'oqlik davrida inontirish anchagina emosional ko'tarinkilik ruhida ayniqsa yaxshi kor qiladi.

Duduqlanish, alkogolizm, nevrozlarga davo qilish uchun uyg'oqlik holatida inontirish usuli qo'llaniladi.

O'z-o'zini ishontirish ham psixoterapevtik usullardan hisoblanadi.

Bemorning o'z-o'zini ishontirib aytgan so'zlari organizmning turli sistemalarida fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tansiq ovqat to'g'risida o'ylashga javoban me'da shirasining ajralishi, sovuq ta'sir qilishi to'g'risida o'ylashga javoban badan terisining «tuk-tuk» bo'lib ketishi va boshqalar organizmdagi fiziologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini aniq - ravshan qilib isbotlaydi.

Autogen trenirovka (ya'ni bemorning o'zi bajaradigan mashq) psixoterapiyaning keng tarqalgan metodikasidir.

Autogen trenirovkani nemis olimi I.Shuls taklif etgan jamoa va gurux psixoterapiyasi bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ularning o'rtasidagi farq shundan iboratki, gurux psixoterapiyasida asosiy psixoterapevtik ta'sir vrachdan chiqadi va umuman butun guruxga qaratilgan bo'ladi.

Jamoa psixoterapiyada bemorlar jamoasining har bir bemoriga shifobahsh ta'sir ko'rsatishdan foydalaniladi.

Faollashtiruvchi psixoterapiyaning maqsadi – kasal shaxsiyatining saqlanib qolgan tomonlarini safarbar etib, uni real turmush sharoitlariga jalb qilish, kasallik natijasida izdan chiqqan funksiyalarni mashq qildirishdir.

Faollashtiruvchi psixoterapiya ko'ngliga doim bir xil xayol kelib yuradigan (odam doim vahimada yuradigan, miyyasidan har xil hayol va shubhalar nari ketmaydigan va boshqa) holatlarda foyda beradi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Psixoterapiya nima? Uning ahamiyati nimada?
2. Inontirish va gipnoz nima?

3. Jamoa va guruh psixoterapiyasi nima?
4. Autogen mashqni tushuntirib bering?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

- yil.
1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. - 1997
 2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
 3. Psixologiya Slovar 1990
 4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
 5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. «Gipnoz» terminini fanga olib kirgan olim nomini toping?
 - A) J. Sharko
 - *B) N.Bred
 - C)I.M.Sechenov
 - D) K.K.Platonov
 - E) V.Broke
2. Autogen mashqlarni fanga qaysi olim taklif etgan?
 - A) I.Shuls
 - B) M.S.Lebedinskiy
 - C)S.S.Libik
 - D) A.N.Shogam
 - E) R.S.Belyayev
3. Psixoterapiya nima?
 - *A) davo maqsadida bemor psixikasiga ta'sir ko'rsatish jarayoni
 - B) bemorni antidepressantlar yordamida davolash
 - C)bemor psixikasini tarbiyalash
 - D) yengil uxlatish usuli
 - E) o'ziga-o'zi ta'sir ko'rsatish
4. Gipnozning necha hil turi bor?
 - A) 2
 - B) 5
 - C)4

- D) 8
- *E) 3

5. «Vrach bilan suxbatlashganidan keyin bemor yengil tortmasa, u vrach emas», degan fikrni kim aytgan?

- A) Tarxanov
- B) Pavlov
- C)Platonov
- *D) V.Bexterev
- E) Lebedinskiy

9. MAVZU: PSIXOGIGIYENA VA PSIXOPROFILAKTIKA


Reja:

1. Psixogigiya tibbiy psixologiyasining tarmog'i sifatida
2. Psixogigienaning tarmoqlari
 - a) yosh psixogigienasi
 - b) mehnat va o'qish psixogigienasi
 - c) turmush psixogigienasi
 - d) oila va jismoniy hayot psixogigienasi
3. Amaliy psixologning psixoprofilaktika sohasidagi vazifalari
4. Tibbiyot hodimlarining psixoprofilaktik ishlari.

Asosiy tayanch tushunchalar

Psixogigiya – odam ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash

Psixoprofilaktika – ruhiy kasalliklar va buzilishlarning paydo bo'lishiga yordam beruvchi sabablarini o'rganish, ularni o'z vaqtida Aniqlash va barham toptirishdir



Psixoprofilaktika inson hayotida qanday rol o'ynaydi?

Psixogigiya – odam ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash haqidagi fandir.

Kishi salomatligiga ijtimoiy foydali faoliyat va mehnatning ta'sirini o'rganish psixogigienaning asosiy vazifalaridan biridir. Mehnat faoliyati to'g'ri tashkil etilganda odamning butun qobiliyati to'laligicha yuzaga chiqadi, mehnat sog'liq va baxt garovi bo'lib qoladi. Mehnat rejimi noto'g'ri tashkil qilinganda, ortiqcha charchash nerv tizimining holdan toyishi, turli hil noqulay sharoitlar ta'siri ostida organizm chidamining pasayishi ro'y berishi mumkin. Mehnat va dam olishni bir meyorda Olib borish esa muhim psixogigiya ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan Amaliy psixologlarning vazifalari asosan 5 ta yo'nalish bilan belgilanadi, jumladan: psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini maktabni xozirga zamon psixologiya Fani yutuqlari

bilan ilmiy-uslubiyot bo'yicha ta'minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jixatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, ta'lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhim mavjud kamchilik va buzilishlarning oldini olish (psixoprofiaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Psixoprofilaktikaning asosiy vazifalari bo'lib: 1. har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi aqlan barkamollikni ta'minlashning oqiloni shart-sharoitlarini yaratish. 2. shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik buzili shva nuqsonlarning o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

Psixogigiyena psixoprofilaktika bilan ya'ni nerv – psixik kasalliklarini oldini olish bilan mustahkam bog'langandir.

Psixoprofilaktikaning asosiy maqsadi quyidagilar

a) kasallik qo'zg'atadigan sabablarning organizmga ta'sirini kamaytirish va yo'qotish

b) kasallik rivojlanishiga yo'l qo'yilmaslik uchun unga erta tashxis qo'yish va samarali davolash

B) to'la-to'kis davolash va kasallik qaytalanishi va uning surunkali turlarga o'tib ketishining oldini olishga qaratilgan choralar ko'rish.

Psixoprofilaktika va psixogigiyena uzoq davrlardan buyon mavjud bo'lib, ularning negizlari eski tibbiy adabiyotlarda bayon etilgan.

Sog'lom psixikani tarbiyalash psixogigiyena va psixoprofilaktika fanlarining muhim vazifasi hisoblanadi.

?

Psixogigiyena barcha sohalarga taluqlilimi?

Psixogigiyenaning quyidagi tarmoqlari mavjud: 1. yoshga oid psixogigiyenasi. 2. mehnat va ta'lim psixogigiyenasi. 3. turmush psixogigiyenasi. 4. oila va jinsiy hayot psixogigiyenasi.

Yosh psixogigiyenasi.

Odamning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash vazifalari uning yoshi ulg'ayib borgan sari o'zgarib boradi. Shu jixatdan olganda bolalik


davri, pubertat davr va involyusiya (rivojlanishning aksi, so'lish) davrini hammadan mas'uliyatli deb bilmoq lozim.

Mana shu paytlarda odam psixikasida, shuningdek, nerv tizimining ayrim bo'limlari va butun organizmda katta o'zgarishlar ro'y beradi (shaxs va xarakterning shakllanishi, qarish jarayonlari)

Ilk go'daklik davrida bolani qat'iy kun tartibi bilan boqish psixogigiyenik jixatdan kata ahamiyatga egadir.

Oiladagi sog'lom muhit ota bilan ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar farzandlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyaning buzilishi va kamchiligi – yomon ta'sir qoldiradigan psixogigiyenik omildir. Har bir davrning o'ziga hos psixogigiyenik talablariga amal qilish sog'lom turmush tarzigi ta'minlaydi. Jumladan kun tartibi, to'g'ri ovqatlanish jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish va boshqalar.



Nima uchun odam mehnat qiladi?

Mehnat va o'qish psixogigiyenasi.

Psixogigiyenena nuqtai nazaridan mehnat odamga foydali va zarurdir. kishining mehnatga emosional jixatdan qanday munosabatda bo'lishi juda muhim omil hisoblanadi.

Mehnat shaxsni shakllantirish vositasi, ijod, ilxom va turli-tuman xissiy kechinmalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Mehnat psixologiyasining mehnat faoliyatining barcha turlariga ta'luqli bo'lgan bir necha umumiy vazifalari va muammolari mavjud.

Agar kishining kasbi uning qizishlari va tayyorgarligiga mos kelsa, u holda mehnat quvonch, zavq, ruhiy sog'lomlik manbaiga aylanadi.


Mehnat psixogigiyenasining muhim bo'limlaridan biri aqliy mehnat gigiyenasidir. Aqliy mehnat noto'g'ri tashkil etiladigan bo'lsa, salomatlikka putur yetkazadigan omil bo'lib qolishi mumkin.

Aqliy mehnat miya tinib turgan paytda (kunning birinchi yarmida) ayniqsa samarali va foydali bo'ladi. Bunday mehnat tanafussiz 3-4 soatdan uzoq cho'zilmasligi kerak.

Aqliy mehnat bilan shug'ullanayotgan odamning tez-tez chalg'ib turishi, shovqin-suron, telefon qo'ng'iroqlari va boshqalar ishga halal beradi.

Aqliy mehnatni harakat, jismoniy tarbiya, jismoniy mehnat, sayr qilish bilan birga navbatlab olib borish kerak. Chekish aqliy mehnatga halal beradi,

asab tizimini stimullaydigan qo'zg'otuvchi moddalar (fenamin, kofein, kofe, achchiq choy) ham tavsiya etilmaydi.



Odamlar bir-birlariga qanday munosabatda bo'lishi kerak?


Turmush psixogigiyenasi

Bu psixogigiyenaning asosiy vazifasi turmushda kishilarning o'zaro munosabatlari, kechinmalari, har hil kelishmovchiliklar oqibatlarini o'rganish, oldini olishdan iborat.

Kishilar orasidagi kelishiovchiliklar negizida quyidagi kasallik va illatlar yotadi: nevrotik xastaliklar, psixopatiyalar va ruhiy kasalliklar, iqtisodiy yetishmovchiliklar, ichkilikbozlik, giyohvandlik, taksikomaniyalar va x.k. turmush psixogigiyenasi ushbu zararli omillarga qarshi psixogigiyenik chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak.

Bugungi kunda kishilar hayotida televideniya, Internet va radioning ta'sirini o'rganish psixogigiyenada dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'zaro normal insoniy munosabatlarning psixoprofilaktik ahamiyati benihoya katta. Ruhiy shikastlarni bartaraf etadigan hamma omillar ruhiy sog'lomlikni saqlash va psixik kasalliklarning olidini olishga imkon beradi.

Shahar sharoitlarida ishlab chiqarish, tarnspopt, radio, televizor va Musiqa asboblaridan chiqadigan shovqin odamga patogen ta'sir qiladi. Unga qarshi kurash jiddiy psixogigiyenik tadbirlardan biri hisoblanadi.



Jinsiy tarbiya qay tarzda berilishi kerak?

Oila va jinsiy hayot psixogigiyenasi

Oilaning mustahkamligi sevgi, muhabbat, do'stlik oiladagi katta yoshdagi kishilarning bir-biriga o'zaro hurmati, kichiklarga nisbatan shavqatliligi, oiladagi manfaatlarning umumiyligi, ularning o'zaro munosabatlarda zarur paytlarda kechirimli bo'lishlari baxtiyor oila vujudga kelishiga yordam beradi.

Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar rasm-rusmlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit qizlar asta-sekin kamol topib boradilar.

Yoshlarni turmush qurishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zlab ish tutish uchun o'spirin yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy turmushning quvonchlari va tashvishlariga doir muayyan darajada ma'lumot berish ularga bardoshli va matonatli bo'lish hamda qiyinchiliklarni mardonavor yengish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Oila – ijtimoiy zarurat.

Ma'lumki tabiatdagi butun mavjudod yirik organizmlar borki barchasining juftlikda yashashi hayotiy qonuniyatlardir. Shunday ekan, insoniyat tabiat sarvari sifatida kishi-shaxs tariqasida shakllanib chiqishiga qadar ham shunday tabiiy zaruratga ehtiyoj sezgan.

Nikoxdan o'tishga qadar shaxslar o'zlarti tanlagan kishining irsiyatini bilishlari lozim. Afsuski, shunday kasalliklar borki, ular nasldan-naslga o'tadi. qarindosh Urug'dan qiz olish yoki qiz berish odati qat'iy qoralanish va undan butunlay voz kechish kerak. Chunki ayrim ota onalar shunday nikoxlarga rozilik berib, natijada nogiron va kasalmand farzand dunyoga kelishiga sababchi bo'ladilar. Psixogigiyenaning eng muhim vazifalaridan biri har tomonlama to'la to'kis jinsiy hayotni qaror toptirishga yordam berishdan iboratdir. Bu sohadagi buzilishlar ko'pincha ancha-muncha ruhiy jaroxatlar va asab buzilishlarga olib keladi.

Noto'g'ri olib borilgan jinsiy hayot ko'pincha kishini og'ir iztirobga solib u ko'pgina kelishmovchiliklarning sababchisi hisoblanadi. Ayniqsa jinsiy hayotdagi chekinishlar va bu hayotning estetik jihatlarini bilmaslik zamirida erkakda va ayolda jinsiy sovuqlik kabi buzilishlar kuzatiladi. Ayrim shaxslarda jinsiy moyillik ustunlik qilishi natijasida u jinsiy hayotga ko'proq e'tibor beradi. bunday holat shaxsda potologik rivojlanish belgisi borligini ko'rsatadi.

Jinsiy hayot faqat turmush qurgandan keyin boshlanishi kerak. Jinsiy ortiqchaliklar va seksual buzuvchiliklar nerv sistemasini holdan toydiradigan omil hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Psixogigiyena va psixoprofilaktika nima?
2. Psixogigiyenaning vazifalari?
3. Psixogigiyenaning asosiy turlarini aytib bering?

4. Amaliy psixologning psixoprofilaktik ishlari nimalardan iborat?
5. Tibbiyot psixoprofilaktikasi deganda nimani tushunasiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoriT. - 1997 yil.
2. Barkamol avlod orzusi T. 2000
3. Psixologiya Slovar 1990
4. Umumiy va tibbiy psixologiya T - 2003
5. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deoitologiyasi asoslari T. 1997

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Psixogigiyena mustaqil fan bo'lib qachon ajrab chiqqan?
 - A) 15 asrda
 - *B) 19-asrning 2-yarmida
 - C) 16-asrning 1-yarmida
 - D) 19-asrda
 - E) 17-asrning 2-yarimda
2. «Havo va suv orqali tarqalib kasallikka sabab bo'ladigan qandaydir jonivorlar bor», degan fikr kimga tegishli?
 - A) Gippokrat
 - B) Suqrot
 - C) Beruniy
 - D) Farobiy
 - *E) Abu Ali Ibn Sino
3. Psixogigiyenaning asosiy tarmoqlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) mehnat psixogigiyenasi, tibbiyot psixogigiyenasi, salomatlik psixogigiyenasi
 - B) oziq-ovqat gigiyenasi, kiyinish gigiyenasi, ahloq-odob gigiyenasi
 - C) yosh psixogigiyenasi, oila psixogigiyenasi, tibbiyot psixogigiyenasi
 - *D) yosh psixogigiyenasi, mehmat va o'qish psixogigiyenasi, turmush psixogigiyenasi, oila va jinsiy hayot psixogigiyenasi
 - E) turmush psixogigiyenasi, mehnat psixogigiyenasi, oziq-ovqat psixogigiyenasi

10. MAVZU: TIBBIYOT DEONTOLOGIYASI VA PSXOLOGIYA

Reja:

1. Tibbiyot deontologiyasi haqida tushuncha
2. Tibbiyot etikasi va uni rivojlantirish
3. Bemor va tibbiyot hodimi o'rtasidagi munosabat

Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalar

Tibbiyot deontologiyasi – tibbiy hodimlarning kasbiy xulq-atvori haqidagi fan

Etika – grekcha «yetxos» so'zidan olingan bo'lib, u urf-odat, ahloq degan ma'noni bildiradi

Vrachlik siri – bemor kasalligi bilan bog'liq ma'lumotlarni vrach tomonidan sir tutilishi.


Tibbiyot deontologiyasi (grekcha deontos-zarur lozim bo'lgan narsa va logos-ta'limot) tibbiyot hodimlarining kasbiy hulq-atvori haqidagi fandır.

«Deontologiya» kishining professional hulq-atvori haqidagi fanni ifodalash uchun 21-asrning boshlarida ingliz faylasufi Iyerimiya Bentam tomonidan taomilga kiritilgan edi. «Deontologiya» tushunchasi teng ma'noda professional faoliyatning har qanday sohasiga – tibbiyot, muxandislik, yuridik, agronomik va x.k. soxalariga ham taaluqlidir.

Osiyo davlatlarida XV-XVI asrlardayoq tarkib topgan. Mustaqil O'zbekistonimizda deontologiyaning shakllanishiga buyuk allomalarimiz Xorazmiy, Farg'oniy, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa buyuk olimlarimiz o'zlarining yaratgan nodir asarlari bilan katta ta'sir ko'rsatishdilar. Ayniqsa Ibn Sino tibbiyot sohasidagi o'lmas asarlari bilan O'rta Osiyoda tibbiyotning yuksalishiga o'zining bebaho hissasini qo'shgan. Tibbiyot deontologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat

- tibbiyot hodimlari hulq atvorlarining davolash samaradorligini imkoni boricha oshirishga qaratilgan tamoyillarini o'rganish

- tibbiy xizmatdagi noqulay omillarga hamshira va vrach faoliyatidagi ziddiyatlarga, patologik ko'rinishlarga barham berish.
- tibbiyot hodimlari bilan bemorlar o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro munosabatlar tizimini o'rganish.
- zamonaviy tibbiyot va bemor talabiga javob bermaydigan tibbiyot xizmatining zararli omillarini tugatish.




Gippokrat qasami xaqida nimalarni bilasiz?

Tibbiyot etikasi umumiy etikaning bir qismi hisoblanadi. Tibbiyot etikasi qadimgi Gresiyada katta taraqqiyotga erishdi va Gippokrat qasamida yaqqol namoyon bo'ldi.

Gippokrat qasami tibbiyot etikasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik tibbiyot o'quv yurtlarini bitirib chiquvchi talabalar «Fakultet va'dasi»ga imzo chekkanlar, unga Gippokratning ahloqiy nasixatlari asos qilib olingan.

Buguni kunga kelib tibbiyot etikasi tamoyillari yanada rivojlandi. Vrach siri degan narsa ustida (Aniqrog'i tibbiyot siri degan narsa ustida) alohida to'xtalib o'tish kerak. Bu tibbiyot hodimi etikasiga ta'luqli masaladir. Tibbiyot hodimlarining ishini hususiyatiga ko'ra, bemor o'zining eng chuqur kechinmalarini ularga izhor etadi, o'zlarining oilaviy va boshqa ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, hech kimga aytmaydigan gaplarini tibbiyot hodimi bilan o'rtoqlashadi.

Bemorlarning ishonib aytgan ma'lumotlarini esa hech kimga aytmaslik kerak.



Etik munosabatlar qanday bo'lishi kerak?

Tibbiyot hodimlari bemor bilan muomala qilishda etika normalariga amal qilishdan tashqari, kasbiy sabr-to-at va o'z-o'zini tuta bilish yuksak tuyg'usiga ham ega bo'lishi kerak. Tibbiyot hodimi bilan bemor o'rtasidagi ishonch vaziyatini vujudga keltirish davolash siriga qat'iy rioya qilinishi shart hisoblanadi.

Tibbiyot hamshirasining ishi faqat katta jismoniy zo'riqishni bajarish bilan emas, balkiy katta xissiy zo'riqish bilan ham bog'liq bo'lib, bu narsa bemor kishilar bilan muomala qilish chog'ida ularning haddan tashqarii ta'sirchanligi, kasallik tufayli injiq bo'lib qolishi jizzakiligi natijasida vujudga keladi. Hamshira kasallar orasida hamma vaqt bo'ladi. Shuning uchun uning aniq xarakatlari va vrachning ko'rsatmalarini mahorat bilan bajarishi, uning bemorga ta'sirini samimiy munosabati unga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ya'ni g'amho'rlik diqqat e'tibor hamshira bilan bemor o'rtasidagi aloqani asosi hisoblanadi. yoqimli va shirin so'z bilan murojaat qilishda samimiy tabassumda hamshiraning o'z bemorlariga g'amxo'rliigi va diqqat e'tibori ifodalanadi.

Biroq hamshiraning diqqat e'tibori va samimiyligi intim xarakterda bo'lmasligi, bemorlar o'zlari bilan hamshira o'rtasidagi masofani suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tibbiyot hodimi, shu jumladan tibbiyot hamshirasi vrachlik sirini qattiq sir tutishi kerak. Vrachlik siri deganda quyidagilar tushiniladi:

1) bemor to'g'risidagi ma'lumotlar va bu ma'lumotlarni tibbiyot hodimi bemorning o'zidan yoki davolash jarayonida oladi va ular jamoatchik orasida ma'lum qilinmaydi;

2) bemor to'g'risidagi ma'lumotlar; (kasallikning noxush yakuni, bemorga psixologik ziyon yetkazuvchi diagnoz v ax. k.) tibbiyot hodimi bu ma'lumotlarni bemorga ma'lum qilmaydi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Tibbiyot deontologiyasining asosiy vazifalarini aytib Bering.
2. tibbiyot etikasi nima va qanday taraqqiy etgan?
3. tibbiyot hodimi va bemor o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida so'zlang.

Test savollari

1. Deontologiya termini qachon kim tomonidan fanga kiritilgan?
A) 18-asr boshlarida, Kant tomonidan
B) 18-asr 2-yarmida, Beruniy tomonidan
*C) 19-asr boshlarida, Bentam tomonidan

- D) 20-asr boshlarida, Sechenov tomonidan
- E) 19-asr ohirida Pavlov

2. Tibbiyot Deontologiyasining nechta asosiy vazifalari bor?

- A) 6
- B) 5
- C) 2
- D) 3
- *E) 4

3. «Eng muhim ahloqiy boylik adolatdir», degan fikrni kim aytgan?

- A) Al-Beruniy
- B) Al-Farobiy
- *C) Abu Ali Ibn Sino
- D) Aflotun
- E) Suqrot

VAZIYATLI PSIXOLOGIK MASALALAR

1-MASALA

O'n olti yashar Malika o'zining tahririyatga yo'llagan maktubida quyidagilarni yozadi: «Ota-onam mening axvolimga tushunmaydilar! Ular meni yaxshi ko'rishar emish, shunaqayam yaxshi ko'radimi?

Ular menga doim shubha bilan qarashadi, hamisha kim bilan yurgan eding, qayoqqa bording, — deb so'rashadi, xatlarimni menga bildirmay o'qishadi. Qachon qarasang urishishadi. Besh baho olib kelgan kunim—bir og'iz shirin so'z aytishmaydi, shunday bo'lishi kerak, deb xisoblashadi, mabodo uch baho olib qolsam bormi — har doim janjal boshlashadi! Nega uch olganimni so'rab ham o'tirishmaydi. So'kishdan to'xtashmaydi. Xo'sh, shuning hammasini yaxshi ko'rishgandan qilishadi, deb o'ylaysizmi?»

Savollar

1. Malika bilan ota-onasi o'rtalaridagi o'zaro nosog'lom munosabatlarning sababi nimada ekanligini tushuntirib bering?

2. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasida sog'lom munosabatlar qaror topmog'i uchun ota-onalar qanday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishlari kerak?

2-MASALA

Tadqiqotlardan birida sinalayotgan kishilarga, talabalarga elektron taxistoskop orqali 0,02 sekund ichida bir necha kishining yuzi aks ettirilgan fotosuratlar ko'rsatganlar, endi ana shu kishilarga ta'rif yozish talab qilingan edi. Fotosuratlar birinchi marta ko'rsatilganida tadqiq etilayotgan kishilar o'sha suratdagi shaxslarning faqat tashqi ko'rinishlari asosidagina idrok etilgan axborot asosida «erkin» ta'rif-tavsif berdilar. Fotosuratlarni takroriy namoyish qilish vaqtida ularga izoh berib, bu «guruh yetakchisi (starostasi)», uchinchi ko'rsatishda esa bu «yaxshi o'rtoq», to'rtinchi safar ko'rsatishda — bular «a'lochilar», va nihoyat beshinchi marta ko'rsatish vaqtida — bu «qoloq» — deb ta'riflab turganlar.

Shu narsa ma'lum bo'ldiki, barcha hollarda sinalayotgan kishilar bir odamning o'ziga, ya'ni idrok etilayotgan ob'yektga har xil ta'rif berganlar, uni turli ehtiyoj va qobiliyatlarga ega bo'lgan, o'qishga, hayotga nisbatan bir xil munosabatda bo'lmagan kishi sifatida ta'riflab berganlar.

Savollar

1. Ob'yekt sifatida tanlab olingan kishilarga ta'rif berishda sinalayotganlar shaxsiga xos qanday xususiyatlar hal qiluvchi rol o'ynaganligini ko'rsating?
2. Inson hayotida, uning voqelikni idrok etishida bu xususiyatlar qanday ijobiy ahamiyat kasb etadi?

3-MASALA

O'zbekistonda har bir yigit-qiz kafolatlangan ish bilan ta'minlanish huquqiga, shu jumladan, o'zlarining layoqatlariga, qobiliyatlariga, kasb-hunar malakalariga, bilimlariga muvofiq ravishda va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb, mashg'ulot va ish tanlash huquqiga egadirlar. Kasb tanlash faqat shaxsiy emas, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish sifatida qaraladi. Shuning uchun ham kasb tanlanayotganda faqat kim bo'lib yetishish masalasi emas, balki qanday inson bo'lib yetishish masalasi ham hal qilinadi.

O'zbekiston bo'lg'usi mutaxassislari o'zlarining kasbga tayyorgarlik ko'rish jarayonidayoq bo'lg'usi kasblari bo'yicha mahoratga ega bo'lib borishlaridan manfaatdordir.

Pedagogik faoliyat — jamiyat katta a'zolarining amalga oshiradigan faoliyat turi hisoblansa, ularning kasb egallash maqsadi esa o'sib kelayotgan yosh avlodga tarbiya berishdir. O'qituvchining pedagogik mahorati—bu o'quvchida mavjud shaxsiy fazilatlarning, undagi bilimlar, ko'nikma va malakalariing sintezidir. O'qituvchining mahoratini shakllantirib borish har bir talaba shaxsini bo'lg'usi o'qituvchi va murabbiy sifatida tarbiyalab borish ishi bilan uzviy bog'liqdir.

Savollar

1.O'zini maktabda yoki davolash muassasasida ishlash uchun yaxshiroq tayyorlash maqsadida pedagogika yoki tibbiyot o'quv yurtida ta'lim olayotgan talaba qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak?

2.Nima sababdan bo'lg'usi o'qituvchilar—talabalar pedagogik mahoratini shakllantirish ularning shaxsini tarbiyalash ishi bilan tarkibiy bog'liq ekanligini tushuntirib bering?

4-MASALA

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmokdaki, shaxslararo aloqalarda bir-birini tushunish xizmat sohasida va odamlar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarda muloqot madaniyatining hamda sog'lom mikromuhitni vujudga keltirishning asosiy shartidir.

quyida «hayotdan olingan» bir misol to'g'risidagi axborotni diqqat bilan o'qib ko'ring: «Yosh kelin-kuyovlar bir-birlariga qaynoq muhabbat bilan turmush qurishgan edi, lekin oradan sal vaqt o'tmay, ajralish to'g'risida gapira boshladilar. Xo'sh, sababi nima ekan?...» «Murosalar to'g'ri kelmagan emish».

- Xotinim har doim arzimagan narsani bahona qilib janjal ko'taraveradi. Rasvo tabiati bor, hech qachon bir masalada yon bosish nima ekanligini bilmaydi, — deb shikoyat qiladi eri.
- Erim hech bir ishni o'z vaqtida qilmaydi, men bilan hisoblashmaydi. Men ishdan charchab kelib, boshim og'rib yotgan vaqtimda u albatta qayergadir taraklatib mix qoqishi kerak. qachon nimani iltimos qilsang, nuqul ertaga, ertaga deb bahona

qiladi... deya unga qarshi javob beradi xotini.

Savollar

1. Yuqorida keltirilgan misolda shaxsning qanday salbiy jihatlari odamlar o'rtasidagi o'zaro nosog'lom munosabatlarning sababchisi bo'lganligini ko'rsatib bering.
2. O'zaro muloqot jarayonida shaxsning qanday o'ziga xos xususiyatlari o'zaro munosabatlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi?
3. Xizmat sohasi va oilaviy munosabatlarda, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda bir-birini tushunish sog'lom mikromuhitni vujudga keltirishning asosiy sharti ekanligini isbot qilib bering?

5-MASALA

Agar ota-onalar o'z farzandlariga biron narsa va'da qilgudek bo'lsalar, albatta o'z va'dalarini bajarishlari shart ekanligi to'g'risida hamma e'qda yozishadi. Mening onam esa boshqacha yo'l tutadi. U menga portfel sotib olish uchun pul berdi.

Men undan: «Menga kolgotka ham olish uchun yana ozgina pul bermaysizmi? — deb so'radim. Onam rozi bo'ldi, lekin ertasiga menga bunday deb murojaat qildi: «Nasiba, menga pulni qaytarib ber. Sen hozir kolgotka sotib olishing shart emas». Men pulni qaytarib berdim, ammo shunaqa xafa bo'ldimki, hatto ho'ngrab yig'lab yubordim. Buni ko'rib onamning ham jaxli chiqib ketdi va menga qarab: «Men senda vijdon bor deb o'ylagan edim! Sen vijdonsiz ekansan», — dedida pulni stol ustiga tashlab chiqib ketdi.

Lekin men bu pulga qo'limni ham tekkizmadim. Dugonam meni ogoxlantirib qo'ydi: «Onang bu pulni qaytarib oladi», dedi. Lekin onam bunday qila olmasligini bilar va bunga qattiq ishonar edim. Lekin ma'lum bo'lishicha, onam har narsaga qodir ekan, men adashgan ekanman. Modomiki, sen bergan va'dangni ustidan chiqa olmas ekansan, yaxshisi va'da bermay qo'ya qol.

Aytingchi, bizning qaysi birimiz haqmiz?

Savollar:

1. Mazkur vaziyatda Nasiba bilan uning onasi o'rtasidagi munosabatlarga baho bering?

2.Siz maktub muallifiga qanday javob qaytargan bo'lardingiz?

6-MASALA

Bine — Shtern nazariyasiga binoan bolalarda kuzatishning rivojlanishi bir qancha bosqich yoki darajalardan o'tadi. Bu darajalar muayyan bir izchilliqda bir-birining o'rnini almashtirib turadi va doimiy ravishda shunday harakatda bo'ladi:

1. Turli aralash buyumlarni sanab, nomma-nom aytib bera olish bosqichi (3 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Bayon eta olish bosqichi: bunda buyum (narsa)larga ta'rif beriladi, ular o'rtasidagi ba'zi bir aloqalar ko'rsatib o'tiladi.
3. Izoxlash, tushuntirish bosqichi: bunda manzara umuman to'liq idrok etiladi, narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqalar hamda munosabatlar ochib beriladi.

Ushbu nazariyani amalda tekshirib ko'rish vaqtida psixolog olimlar (S. L. Rubinshteyn, G. T. Ovsepyan) shunday xulosaga keladilarki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqich va darajalarni bolalarning yoshiga nisbatan olmaslik kerak. Narsa va hodisalarni qay darajada idrok etishiga qarab, bir xil yoshdagi bir qancha bolalar turli kuzatish bosqichlarida bo'lib qolishlari, xuddi shuningdek turli yoshdagi bolalar aynan shu xil bosqichda bo'lib qolishlari mumkin.

Savollar:

1. Bine—Shtern nazariyasining xato ekanligi nimada namoyon bo'ladi.
2. S. L. Rubinshteyn va G. T. Ovsepyan xulosalarining (to'g'ri ekanligini aniq misollar bilan tasdiqlang.

7-MASALA

O'quvchilar kichik yoshdagi sinflardan katta yoshdagi sinflarga o'tgani sayin ulardagi kuzatuvchanlik o'zgarib boradi. Agar kichik yoshdagi o'quvchilarda bu kuzatuvchanlik u yoki bu narsa, hodisaning sirtidagi belgilarni ko'rishda namoyon bo'lsa, o'rta va kichik yoshdagi o'quvchilarda bunday kuzatuvchanlik ularning voqea-hodisalarning mohiyatini tushuntirishga, ularning yashirin, lekin g'oyat muhim belgilarini aks ettirishga harakat qilishlarida namoyon bo'ladi.

Savollar:

1. Kuzatuvchanlikdagi bunday o'zgarish nimalar bilan izoxlanadi?
2. O'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantirishda o'qituvchi qanday rol o'ynaydi?

8-MASALA

Maktabgacha yoshdagi (4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan) bolalarga eksperiment vaqtida o'rganish uchun 15 ta so'z o'qib berildi va bolalardan o'sha so'zlarni qayta talaffuz qilib berish so'raldi.

So'ngra o'sha bolalarga ayrim narsalar tasviri ishlangan rasmlar guruhi taqdim etildi. Aytilgan har bitta so'zni (bu safar endi boshqa so'zlarni) eslab qolish hamda mazkur so'zni esda yaxshiroq saqlab qolishga yordam beradigan tegishli rasmni ko'rsatish taklif qilindi. Keyin esa rasmlar olib qo'yilib, bolalarga endi boyagi so'zlarni rasmni ko'rmay turib takrorlash taklif qilindi. To'rt yashar va yetti yashar bolalar uchun yo'riqnoma (instruktsiya) tuzib chiqing.

PSIXOLOGIK MASALALAR YECHISH**9-MASALA**

Bola — maktabgacha yoshdagilarning kattasi. Uning xulq-atvorida quyidagi omillar seziladi. Masalan, uning ovqat yegisi keladi, lekin ovqat bersangiz qo'lga oladida, uni oyoq ostiga to'kadi. Agar o'ziga ovqat yegin deb zo'rlasangiz, u ovqatni yemaydi, lekin dasturxon atrofiga boshqalar o'tirganda u ham, albatta ovqat yegisi kelib so'ray boshlaydi. Mabodo, onasi otlanib biror joyga borib kelmoqchi bo'lsa, u albatta ergashadi. Onasi: «qani otlana qol, birga ketamiz» — degan zahoti bola unga qarab: «Bormayman» — deydi. Agar shundan keyin onasi ko'cha eshikka qarab yura boshlasa, bola uning orqasidan: «Men ham boraman», — deb qichqiradi, ona orqasiga qaytgan zahoti, bola yana borishdan voz kechadi. Bunday manzara bir necha marta takrorlanishi mumkin va har safar bola albatta yig'lay boshlaydi.

Savollar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bu bolaning xulq-atvorida qanday salbiy iroda sifatleri namoyon bo'ladi?

2. Bunday bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni qanday tashkil etish kerak?

10-MASALA

Guruhga burab yurgiziladigan yangi o'yinchoq—kuchukcha keltirishdi. Tarbiyachi uni qo'lga olib ko'rdi va o'yinchoqni buradi: kuchukcha gir-gir aylanib vovullay boshladi. Tarbiyachi o'yinchoqni bolalarga yaqinroq olib keldi. Akmal qo'rqib ketib, kuchukchani oyog'i bilan tepib yubordi. Barcha bolalar kuchukchaga rahm qilib, nega tepasan, hammaoyog'i og'riydi-ku, deb achina boshlaydilar.

Guruhga vrach kirib keldi va bolalar bilan kuchukchani qayeri lat yeganini tekshira boshladi. Akmalning yomon ish qilganini so'zlab berdi. Bola darhol o'zgardi va yig'lab yubordi: «Men bunday bo'lishini xoxlamagan edim. Men endi bunday qilmayman. Men bunday qilishni xoxlamagandim, eshitayapsizmi?!» Tarbiyachi Akmalga kuchukchani silab qo'yishni taklif qildi, u rozi bo'ldi va shu zahoti yig'idan ovunib qoldi.

Savollar:

1. Akmalning xulq-atvorida, his-tuyg'ular kechishining qanday o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi?
2. Uni qaysi temperamentga kiritish mumkin?

11-MASALA

Odil kirishimli, harakatchan bola. Applikatsiya yo'li bilan yasagan gullarni ko'rib, ularga baho berish vaqtida tarbiyachi Odildan so'radi:

Odil, senga hammadan ko'ra kimning ishi ko'proq ëqadi?

— Nigoraning ishi, lekin men undan ham yaxshiroq yasay olaman.

— Xo'sh, unda nima uchun yasamay o'tiribsan? Uni qara, hamma bolalar ishlarini tugatishdi, sen bo'lsang endigina novdachalarni yasabsan.

— Men hammadan keyin boshladim-da, agar yasab ulgurganimdami, mening gulim hammanikidan chiroyli chiqardi. Buni qarang, men novdalarni qanday nozik qilib ishladim!

Musiqashahg'ulotida Vatan xaqida qo'shiq aytishardi. Odil qo'shiq so'zlarini hammadan ko'ra qattiqroq aytardi. Nigora degan qiz tanbeh berganida, u shunday javob qaytardi: «Bu qo'shiqni sekin aytib bo'lmaydi,

chunki u Vatan haqida. I. V. bizga so'zlarni aniq tushunarli qilib aytish kerakligini aytgan edi va men shunday aniq aytdim. Tarbiyachi unga savol berdi: «Xo'sh ayt-chi, sen aytayetgan qo'shiq musiqa ohangiga mos kelayapti, deb o'ylaysanmi? Mening nazarimda sen o'zingcha ashula aytayotganga o'xshaysan. Musiqa esa o'zicha chalinayotganday». Odil javob berdi: «Men musiqa ohangiga mos ashula aytayapman».

Savollar:

1. Maktabgacha yoshdagi bola o'z-o'ziga baho berishning shakllanib kelayotgan qanday o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tish mumkin?
2. Temperamentning qaysi turiga mansub bolalar o'z-o'ziga ortiqcha baho beradi, qaysinisiga mansublari o'z qobiliyatiga pastroq baho beradi?
3. Mos kelmaydigan (noadekvat) ravishda o'z-o'ziga baho berishning shakllanishidagi ehtimol tutilgan sabablar xususidagi o'z fikr mulohazalaringizni ayting.

12-MASALA

She'rni yodlab kelish uyga vazifa qilib tolshirilgan edi. O'qituvchi kattagina she'rni bolalar qanday yodlab kelganligini tekshirib ko'rish uchun to'qqiz kishini doskaga chaqirdi. Chaqirilganlarnin hammasi o'qituvchini juda xursand qildi. To'qqiz o'quvchi bir so'zni ham qoldirmay she'rni yoddan aytib berdi.

Shu darslarga ilmiy bo'lim mudiri miyig'ida kuldi-da, shunday javob berdi: «Ha, bolalar chindan ham she'rni yaxshilab yoddan o'qidilar.

Lekin afsuski, darsingiz to'g'risida men bundan boshqa biror ijobiy fikr ayta olmayman. O'qituvchi bu gapdan hangu mang bo'lib qoldi: «Xo'sh, sizningcha men yana nimalar qilishim kerak edi? Axir men ko'p bolalardan so'rab ulgurdim, ko'plariga baho qo'ydim», - dedi.

Savollar:

1. Qani, aytingchi, fikringizcha nima uchun bu dars ilmiy bo'lim mudiriga yeqmadi?
2. Sizningcha, mazkur darsda bolalar qunt bilan tinglab o'tirishdimi?
3. Bolalarning oldida turgan o'quv vazifalari o'sib borishi va tarbiyaviy talablarning oshib borayotganligini hisobga olib, bolalar faoliyatini qay tarzda tashkil etshi mumkin edi?

13-MASALA

Bola nima uchun darsga kelmaganligini izoxlovchi xat olib keldi. «Sen chindan ham kasal bo'lib qoldingmi?» — deb so'radi, undan o'qituvchi. Bola churq etmay turadi. «Xo'sh, bu xatni chindan ham sening onang yozib berdilarmi?» — deb so'raydi yana o'qituvchi. Bola javob bermaydi. «Xo'sh, unda bu xatni kim yozdi?» — deb so'rashda davom etadi o'qituvchi. «Hech kim!» — deb keskin javob beradi bola.

Savollar:

1. Xo'sh, sizning fikringizcha, bola nima uchun o'qituvchiga shunday javob berdi?
2. O'qituvchining o'rnida siz bo'lganingizda qanday harakat qilgan bo'lardingiz?

MUNDARIJA

1. MAVZU: TIBBIYOT PSIXOLOGIYASINING PREDMETI	4
2. MAVZU: SHAXS VA SHAXSNING PATOLOGIYASI	8
3. MAVZU: BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI	13
4. MAVZU XIS-TUYG'ULAR VA ULARNING KASALLIK MUNOSABATI BILAN O'ZGARISHI.	18
5. MAVZU: NORMA VA PATOLOGIYADA HARAKAT AKTLARI VA IRODAVIY JARAYONLAR.	23
6. MAVZU: PSIXIKA VA KASALLIKLAR.	27
7. MAVZU. DORILAR VA BOSHQA VOSITALAR BILAN DAVOLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI	32
8. MAVZU. PSIXOTERAPIYA.....	36
9. MAVZU: PSIXOGIGIYENA VA PSIXOPROFILAKTIKA.....	41
VAZIYATLI PSIXOLOGIK MASALALAR	50
PSIXOLOGIK MASALALAR YECHISH	55

60,1,58,3,56,5,54,7,52,9,50,11,48,13,46,15,44,17,42,19,40,21,38,23,36,25,34,27,32,29

30,31,28,33,26,35,24,37,22,39,20,41,18,43,16,45,14,47,12,49,10,51,8,53,6,55,4,57,2,59

